



IMPORTANCE OF EFFECTIVE MANAGEMENT OF TOURISM SERVICE ENTERPRISES

Asqaraliyev Saidali Raxmonaliyevich

Namangan davlat universiteti Yashil iqtisodiyot va

barqaror biznes kafedrasi stajyor o'qituvchisi

saidali.asqaraliyev1990@gmail.com

<https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0005-0015-6093>

Annotation

This article covers the role of service sector in the economy of the Republic of Uzbekistan, in particular, the importance of creating an effective mechanism for organizing and developing innovative activities in tourism service enterprises. The work of leading scientists on this subject has been analyzed.

Keywords: Customer service, popularity of hotel services, hotel management management, quality of service, accommodation tools

TURIZM XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI BOSHQARISHNING AHAMIYATI

Asqaraliyev Saidali Raxmonaliyevich

Namangan davlat universiteti Yashil iqtisodiyot va

barqaror biznes kafedrasi stajyor o'qituvchisi

saidali.asqaraliyev1990@gmail.com

<https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0005-0015-6093>

Annotatsiya

Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish sohasining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi o'rnini xususan, turistik xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni tashkillashtirish va rivojlantirish samarali boshqaruv mexanizmini yaratishning ahamiyati yoritilgan. Bu bo'yicha yetakchi olimlarning ishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish, mehmonxona xizmatlarining ommaviyligi, mehmonxona faoliyatini boshqarish, xizmat ko'rsatish sifati, joylashtirish vositalari



Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi xususan, turizm sohasi aholini ish bilan ta'minlash borasida yetakchi tarmoqlardan bo'lib, 60%dan ortiq mehnatga layoqatli aholi shu sohada band. Xizmat ko'rsatish sohasi xususan, mehmondo'stlikda inson resurslarini rivojlantirish, ya'ni o'qitish, malakasini oshirish, doimiy kasb mahoratini rivojlantirib borishga katta e'tibor qaratiladi. Shu tufayli ham ish bilan ta'minlanish holati boshqa sohalarga solishtirganda 2 marta ko'p oshdi. Turizm sohasidagi xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni tashkillashtirish va rivojlantirish samarali boshqaruv mexanizmini yaratishni talab qiladi. Bu turdagi korxonalarda innovatsion menejmentning rivojlanishiga ijtimoiy-iqtisodiy, texnik va texnologik omillar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, boshqa iqtisodiyot sohalari beradigan daromadlarsiz xizmatlar sohasining ayniqsa, mehmonxona xizmatlarining ommaviyligiga erishib bo'lmaydi, demak boshqarilish vositasi ham mavjud bo'lmaydi.

"Menejment sohasi bo'yicha xizmat ko'rsatish korxonalari oldiga ikkita o'zaro bog'liq vazifa qo'yiladi:

- bozor munosabatlarini butunlay amaliyotga kiritish ya'ni xizmatlar menejmentiga bozor iqtisodiyoti mazmunini singdirish;

- xizmatlarning turli sohalaridagi "nou-xau" yangiliklarini yangi asr sharoitiga moslashtirish, ya'ni dunyodagi shu yo'nalishda bo'lgan o'zgarishlarni maksimal ravishda hisobga olish"[1].

Mehmonxona faoliyati va uni boshqarish masalalarida olib borilgan tadqiqotlarni ko'rib chiqsak, A.S. Kuskovning "Гостиничное дело" nomli o'quv qo'llanmasida mehmondo'stlik sanoatining hozirgi holati va xususiyatlari bayon qilingan, sayyohlik xizmatlari tarkibida mehmonxona korxonalarining o'rni berilgan, mehmonxona korxonalarining asosiy turlari bilan bir qatorda mehmonxona xo'jaligi faoliyatining me'yoriy asoslari tahlil etilgan. Shuningdek, o'quv qo'llanmada mehmonxona xizmatlari xususiyatlari, boshqaruv va mehmonxona hodimlari, mijozlar va sayyohlik agentliklari bilan o'zaro aloqalariga, qo'shimcha xizmatlarni taqdim etish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan[2]. A.D. Chudnovskiy "Туризм и гостиничное хозяйство" nomli darsligi mehmonxona va sayyohlik biznesini tashkil qilish nazariyasi va amaliyotining asosiy tushunchalarini o'z ichiga oladi. Mehmonxona va sayyohlik majmuasini boshqarishni tashkil etish masalalari, shu jumladan turizm sohasida reklama va marketing kommunikatsiyalari, dam olish sohasida turizmni tashkil etish, mehmonxona boshqaruvini tashkil etish, ish faoliyatini baholash kabilar bayon etilgan. Mehmonxonalaridagi avtomatlashtirilgan ma'lumotlarni qayta ishlash



tizimlaridan foydalanish masalalari, shuningdek, mehmonxona va sayyohlik biznesida iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi me'yoriy xujjatlar ko'rib chiqilgan[3]. "R.S. Amriddinova "Mehmonxona servisi xizmatini tashkil qilish" nomli o'quv qo'llanmasida: hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mehmonxona xizmati sohasida eng yaxshi boshqaruv qarorlarini qabul qilish, boshqaruvni takomillashtirish zarurati bilan bog'liqligi bayon etilgan. Mehmonxona rahbarlari tomonidan xizmat ko'rsatish sifatini boshqarishni takomillashtirish hamda xizmatlarni kengaytirishda mehmonxona xizmatchilari tomonidan jahon talablariga mos xizmatlar darajasi, qo'yilayotgan talablar va mehmonxona xizmatlariga ta'sir etuvchi omillarga alohida ahamiyat qaratish lozimligi yoritilgan. Shuningdek, o'quv qo'llanmada joylashtirish vositalarining rivojlanish tarixi, zamonaviy mehmonxonalarning turlari, mehmonxonalarni tasniflash tizimi, mehmonxonalarning me'morchilik va texnik yechimlari, mehmonxonalardan foydalanish asoslari, mehmonxonalarning tashkiliy boshqaruv tuzilmasi, mehmonxonalarda qabul qilish va joylashtirishni tashkil etish kabi masalalar ochib berilgan" [4].

Menejment ingliz tilidan olingan va Oksford lug'atida keltirilishicha, uning mazmuni boshqaruv san'ati, boshqaruv hokimiyati bo'lib, asosan resurslarni boshqarishda zarur bo'lgan mohirlik va ma'muriy ko'nikmalar mazmunini beradi. "Menejment – bu boshqaruv, ya'ni resurslarni, personalni boshqarish, samarali faoliyat olib borish va foyda olishni bilish, uni ko'paytirish jarayonidir. Demak, boshqaruv – alohida mahoratni talab etuvchi tanlovdir va bu tanlovga asoslanib qaror qabul qilinishi va uni bajarilishi nazorat qilinadi" [5].

Turizm sohasida faoliyat olib boruvchi korxonalar, xususan, mehmonxonalar boshqa tarmoq subyektlari bilan kuchli aloqasi bo'lgan, yaxlit bir tizim bo'lib, allaqachon jahon iqtisodiyotida va milliy iqtisodiyotda asosiy tarmoqlar korxonalari sifatida shakllanib ulgurdi.

Joylashtirish vositalari vazifalarini bajaruvchi mehmonxona tizimlari va korxonalari an'anaviy boshqaruv qonunlari va tamoyillariga asoslanib, boshqaruv maqsadi, funktsiya va vazifalariga ko'ra faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, joylashtiruv vositalarini boshqarishning ishlab chiqarish va boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatish korxonalaridan ajralib turuvchi o'ziga xos tomonlari bor. Ularni aniqlash va boshqaruvda foydalanish mehmonxona menejmentining asosiy vazifalaridan biridir.

Mehmonxona faoliyat sohasining o'ziga xos tomonlari soha korxonalari va vositachilari tomonidan taklif qilinayotgan xizmatlarning o'ziga xos



xususiyatlaridan kelib chiqadi. Yana bir xususiyat aksariyat soha korxonalarini hajmining uncha katta emasligidir. Yirik mehmonxonalar faqat aholi zich yashaydigan yoki tabiiy-iqlim sharoiti turizm faoliyati uchun qulay bo'lgan joylarda shakllanadi. Bu mehmonxona faoliyati uchun oddiy holdir, lekin ushbu korxonalar moddiy ishlab chiqarish korxonalaridagi kabi faqat bir turdagi bo'linmalar bilan bir xil boshqaruv tuzilishiga ega emas.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlar ishlarini o'rganib chiqish natijasida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda aholining farovonligini ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish, yashirin iqtisodiyot bartaraf qilish, xatto atrof-muhitni muhofaza qilishni oshirish, xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatining o'rni beqiyos va shuning uchun xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini modernizatsiyalash va eng so'nggi texnika va texnologiyalarni joriy etish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adilova Z.D., Aliyeva M.T., Norchayev A.N., Xursandov K.M. Turizm menejmenti: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2011. - 13b.
2. Кусков А.С. Гостиничное дело. Учебное пособие. - М.: Дашков и Ко, 2009. - 328 с.
3. Чудновский А.Д. Туризм и гостиничное хозяйство. Учебник.. - М.: Юркнига, 2005. - 448 с.
4. Сайфутдинов, Ш. (2019). Ўзбекистонда меҳмон уйлари ташкил этишда халқаро тажриба. Экономика и инновационные технологии, 322-331.
5. Sharifxo'jayev M., Abdullayev Yo. Menejment: Darslik. — Toshkent, "O'qituvchi", 2001 y. - 5 b.
6. Baxriddinovna T. N. O'zbekistonda xalqaro turizmning rivojlanish tendentsiyalari va turistik salohiyati // Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 46. – C. 578-580.